



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION
TADQIQOTLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI:
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**



**15-16-MAY
2026-YIL**



**Google
Scholar**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 15-16-may)*

JIZZAX-2026

11. Young, K. S. (2009). Internet Addiction: Diagnosis and Treatment. Cognitive and Behavioral Practice, 16(3), 304–316. (Xalqaro miqyosda internet qaramligini diagnostika va davolash bo'yicha asosiy manba)

BOG'CHADA ERKIN O'YIN ORQALI 5-6 YOSHLI BOLALARNING IJTIMOIY- EMOTSIONAL RIVOJLANISHI

Sattorova Mahliyo Burxanovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
o'qituvchisi

Yunusova Shodiya Qaxramon qizi, Otamurodova Shabnam Obid qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin orqali ta'lim berishning ahamiyati yoritilgan. O'yin jarayonida bolalarning fikrlashi, nutqi, xotirasi, ijodkorligi hamda ijtimoiy ko'nikmalari rivojlanishi tahlil qilingan. Shuningdek, o'yin turlari va ularning ahamiyati haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, o'yin faoliyati, didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, sujetli-rolli o'yinlar, qurilish o'yinlari, ijodiy o'yinlar, stol o'yinlari, teatrlashtirilgan o'yinlar, bolalar rivojlanishi, ta'lim jarayoni, tarbiya, pedagogik usullar.

Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ayniqsa 5–6 yoshda bolalarda ijtimoiy munosabatlar, emotsional sezgirlik va o'zini anglash jarayoni faol rivojlanadi. Ushbu jarayonda o'yin faoliyati, xususan erkin o'yin muhim pedagogik va psixologik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni har tomonlama rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. Bu jarayonda o'yin asosiy vosita hisoblanadi. Chunki bolalar o'yin orqali atrof-muhitni anglaydi, yangi bilimlarni oson qabul qiladi va o'zlashtiradi. O'yin bolalarning tabiiy ehtiyoji bo'lib, ularning jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Shu sababli o'yin orqali ta'lim berish samarali pedagogik usul hisoblanadi.

O'zbekistonda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berish, rivojlantirish va tarbiya qilish davlat ta'lim siyosatining muhim vazifasi hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019-yilning 16-dekabrida imzolangan "Maktabgacha talim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunning [1] 4-moddasida "...maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim, tarbiya berish va ularni sog'lomlashtirishning, oila hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyaviy ta'sirining Birligi" haqida yozilgan. Bundan ko'rinadiki, tarbiyalanuvchilarga talim va tarbiyaning ota-ona hamda maktabgacha talim tashkilotlarining orni beqiyosdir. O'yin faqatgina dam olish yoki ko'ngil ochish vositasi emas. To'g'ri tashkil etilganda u quyidagi muhim vazifalarni bajaradi:

1. Bolaning aqliy rivojlanishini ta'minlaydi.
2. Jismoniy rivojlanishiga yordam beradi.

3. Ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantiradi.

4. Ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.

Mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini hosil qiladi.

O'yin bola organizining tabiiy ehtiyoji bo'lib, bola o'yin davomida psixik jihatdan rivojlanadi. «O'yin bolalar mehnatidir», – deb bejiz aytilmagan. Psixik jihatdan normal rivojlanayotgan bolalarning hammasi, albatta o'yin faoliyati bilan shug'ullanadi. O'yin faoliyati bolalar uchun dunyoni bilish qurolidir. A.N.Leontev ta'biri bilan aytganda “motivning maqsadga ko'chishi “kuzatiladi, yangi faoliyat turi yangi motivlar paydo bo'lgach, vujudga keladi. A.N.Leontev fikricha, shaxs ikki marta tug'uladi, shaxsning birinchi tug'ulishi maktabgacha yosh davriga to'g'ri keladi. Bu hodisa insonning o'z impulsiv xatti-harakatlarini ijtimoiy me'yorlarga bo'ysundirishga ilk bora urinishi, motivlar o'rtasida ierarxik munosabatlarning tarkib topa boshlashi bilan bog'liq bo'ladi. Shaxsning ikkinchi tug'ulishi o'smirlik davrida yuz beradi. Bu hodisa insonning o'z motivlarini hamda intilishlarini anglashi hamda ularni bo'ysundirishi bilan bog'liqdir. Rus fiziologlaridan P.K.Anokhin, N.A.Bernshteyn va E.A.Asratyanlarning o'tkazgan tajribalaridan ma'lum bo'lishicha faoliyat davomida ayrim ish-harakatlarining bajarilishini, sensor nazorat qilinishi (ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitib, muskullar bilan sezib) shu harakatlar amalga oshirilayotgan sharoit bilan ham bog'liq bo'ladi.[2] Bola qanchalik ko'p aqliy faoliyatni harakat bilan bog'lasa shunchalik zehni o'tkirlashadi. Miya faoliyatni yaxshilanadi.

Ijtimoiy-emotsional rivojlanish bolaning o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish va jamiyat qoidalariga moslashish jarayonidir. Bu jarayon orqali bola o'zini va boshqalarni tushunishni o'rganadi.

5–6 yoshda bolalarda quyidagi xususiyatlar shakllanadi:

- Tengdoshlar bilan faol muloqotga kirishish
- Ijtimoiy rollarni anglash
- Empatiya elementlarining paydo bo'lishi
- Emotsiyalarni ifodalash va boshqarish

O'yin turlarining ijtimoiy-emotsional rivojlanishga ta'siri

- Maktabgacha ta'limda quyidagi o'yin turlari muhim ahamiyatga ega:
- Didaktik o'yinlar – tafakkur va diqqatni rivojlantiradi
- Harakatli o'yinlar – jamoaviylik va faollikni oshiradi
- Sujetli-rolli o'yinlar – ijtimoiy rollarni o'rganishga yordam beradi
- Qurilish o'yinlari – ijodkorlik va hamkorlikni rivojlantiradi
- Ijodiy o'yinlar – tasavvur va emotsional ifodani kuchaytiradi
- Stol o'yinlari – sabr, diqqat va mantiqni rivojlantiradi
- Teatrlashtirilgan o'yinlar – empatiya va nutqni rivojlantiradi

Ayniqsa, sujetli-rolli va teatrlashtirilgan o'yinlar bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimida ijtimoiy-emotsional rivojlanishga bo'lgan e'tibor yanada ortdi. Xususan, SEL (Social-Emotional Learning) konsepsiyasi asosida bolalarda emotsional intellekt, kommunikativ kompetensiya va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aynan erkin o'yin faoliyati ushbu ko'nikmalarni shakllantirishning eng samarali vositasi hisoblanadi. So'nggi yillarda ta'lim tizimida ijtimoiy-emotsional

ta'lim (SEL) konsepsiyasining joriy etilishi ushbu yo'nalishning dolzarbligini yanada oshirdi. Mazkur yondashuv bolalarda o'zini anglash, emotsiyalarni boshqarish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish va mas'uliyatli qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Shu bilan birga, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda erkin o'yin faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining eng tabiiy va samarali vositasi sifatida e'tirof etilmoqda. Avvalgi yondashuvlarda ko'proq didaktik o'yinlarga urg'u berilgan bo'lsa, hozirgi kunda bolalarning mustaqil, tashabbuskor faoliyatini rivojlantiruvchi erkin o'yinlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tizimida o'yin faoliyati, ayniqsa erkin o'yinlar, 5–6 yoshli bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'yin jarayonida bolalar o'z his-tuyg'ularini anglash, ularni boshqarish, tengdoshlar bilan samarali muloqot qilish hamda ijtimoiy munosabatlarga kirishish ko'nikmalarini egallaydilar.

Turli o'yin turlari — didaktik, harakatli, sujetli-rolli, qurilish, ijodiy, stol va teatrlashtirilgan o'yinlar — bolalar rivojlanishining turli jihatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, erkin o'yinlar bolalarning mustaqilligi, tashabbuskorligi va emotsional barqarorligini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Shuningdek, o'yin faoliyati orqali bolalarda zamonaviy jamiyat uchun muhim bo'lgan muloqot, hamkorlik, empatiya va muammoli vaziyatlarni hal qilish kabi “soft skills” ko'nikmalari rivojlanadi. Bu esa ularning kelgusida maktab ta'limiga moslashuvi va ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga zamin yaratadi.

Shu bois maktabgacha ta'lim jarayonida o'yin faoliyatini, ayniqsa erkin o'yinlarni maqsadli, tizimli va pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etish zarur. Bu esa bolalarning har tomonlama barkamol rivojlanishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi imzolangan qaror. 2019-yil 16 -dekabr imzolangan qaror.
2. Sabohat Xalilovna Jalilova, Sayyora Mirsoatovna Aripova. “Maktabgacha yoshlar psixologiyasi” o'quv qo'llanma Toshkent- 2013.
3. Piaget J. Bola tafakkuri va nutqi. – Moskva: Prosvesheniye, 1994.
4. Maktabgacha pedagogika: darslik / tahrir ostida. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
5. Bolalar psixologiyasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
6. Maktabgacha ta'limga oid davlat talablari. – Toshkent, 2022.
7. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Innovatsiya, 2019.
8. Social-Emotional Learning (SEL) Framework. – CASEL Organization, 2021.
9. Berk L.E. Child Development. – Boston: Pearson Education, 2013.